
Aholi murojaatlarini manzilli hal etish omili

Aholi murojaatlarini hududlarga chiqqan holda o'rganish, muammolarni tinglash va joyida o'rganib chiqish maqsadida tuman hokimi va sektor rahbarlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar uchun navbatdagi qabul bo'lib o'tdi. Tuman Xalq qabulxonasida o'tkazilgan qabulda tumandagi tashkilot va korxonalar rahbarlari hamda fuqarolar ishtirok etishdi. 30ga yaqin fuqaro ishtirok etgan qabulda aholi vakillarining 18 ta murojaati tinglandi va mas'ullar ishtirokida ko'rib chiqildi. Kelib tushgan murojaatlarning 5 tasi joyida qanoatlantirilib, ijobiy hal etildi. Mas'ullar tomonidan 8 ta murojaatga huquqiy tushuntirish berildi va ijrosi muddat talab qiladigan 5 ta murojaat tuman hokimining ko'rsatmasi bilan mas'ullarga yo'natiltirildi va ijrosi nazoratga olindi.

2022-05-05 15:43:10